

TA'LIM –TARBIYA TIZIMIDA USTOZ SHOGIRD MUNOSABATLARINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Muazzamxon Najmiddinova*

*Namangan Davlat Unversiteti*

*Ta'lim Tarbiya nazaryasi va Metodikasi (Boshlang'ich Ta'lim)*

*mutaxassisligi 2-kurs magstranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi sharq xalqlari adabiyotining vakillari, ularning ustoz-shogirdlik haqidagi fikr va qarashlari bir necha ijodkorlar misolida yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu ijodkorlar faoliyatida ustozga ehtirom, munosib shogirdlik an'analarini davom ettirish, ustoz va shogirdlar uchun o'ziga xos odob-axloq, maxsus qonun-qoidalar, milliy an'analar ishab chiqqanliklari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'z:** Pir, "Futuvvatnomai sultoniyy, "Farhod va Shirin, Xamsa"chilik, "Asrornoma, "Tuhfat ul-afkor, "Makorim ul-axloq, Asrornoma, oq she'r.

**Abstract:** In this article, authors from ancient eastern nations, opinions and views about teacher-apprenticeship are indicated. Moreover, respect for teachers, continuing suitable apprenticeship, special behavior for teachers and apprentices, discipline and national traditions by these authors are given.

**Key words:** Pir, Futuvvatnomai sultoniyy, Farkhod and Shirin, Hamsachilik, Tuhfat ul-afkor, Makorim ul-axloq, Asrornoma, White poem

Qadim Sharq xalqlarida ustoz, pir, mudarris nomlari bilan yuritiluvchi zotlarning izzat va hurmati hamisha yuqori bo'lgan. Ustozlar ma'naviyat bog'ining bog'bonidirlar. Dunyo ularning mehnati evaziga oboddir. Ular taratgan ilm ziyosi tufayli insonlarning ma'naviy dunyosi yorug' va ravshan. Inson kim bo'lishidan qat'iy nazar, qaysi soha vakili bo'lmasin, u erishgan yutuqlari zamirida ustozning mashaqqatli mehnati yotadi. Shoh-u gado, yaxshi-yu yomon bari bir, qachonlardir muallim saboqlaridan bahra olgan.

Agar shogird shayxulislom, agar qozidur, agar ustoz rozi-Tangri rozidur, - deganlar Alisher Navoiy hazratlari.

Ota bobolarimiz ustoz va shogirdlar uchun o'ziga xos odob-axloq, maxsus qonun qoidalar, milliy an'analar ishab chiqqan bo'lib, bu qoidalarga qattiy rioya qilganlar. Rizouddin Ibn Fahriddin ustozlarga shunday nasihat qilganlar: "Shogirdingizning har bir harakatlariga qarab turingiz, ularga xushmuomalalikni, go'zal-u shafqatli odatlarni tushuntiringiz, so'zlarini-yu fe'llarini yaxshilangiz." Xusayin Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy" kitobida ustoz qanday bo'lshi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma'lumot beriladi. Kitobda shogird odobi

haqida shunday deyiladi: “Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozni ko`rganda, birinchi bo`lib salom berish; ustozning oldida oz gapirish va boshni oldinga egib turish, ko`zni har tomonga yuguurtirmaslik; agar masala so`ramoqchi bo`lsa oldin ustozdan ijozat olish; ustoz javob aytganda, e`tiroz bildirmaslik; ustoz oldida boshqalarni g`iybat qilmaslik; o`tirib–turishda hurmatni to`liq saqlash”.

Ustoz-shogird an`anasi yillar davomida shakllangan qadimiy qadriyatlarimizdan biridir. Agar iqtidorli ustoz o`z maktabini yaratmasa, o`zidan keyin bilimdon, iste`dodli shogirdlar qoldirmasa, uning hayoti, umri besamar o`tgan bo`ladi. O`z bilim tajribasini ishonchli shogirdlarda qoldirmasa, uning erishgan yutuqlari suvga tushgan toshday izzsiz yo`qoladi. So`zimizning isboti sifatida hazrat Navoiyning quyidagi misralarini keltirishimiz mumkin:

Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

(A.Navoiy “Farhod va Shirin”)

Ustozning umri barhayot. Chunki, ustozning umriga uning qoldirgan shogirdlarining ham umri qo`shilib boraveradi. Hazrat Alisher Navoiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug`bek bobokalonlarimiz qilgan ishlari, erishgan yutuqlari va qoldirgan shogirdlari sababli hali-hamon bizning qalbimizda yashab kelmoqdalar va mangu yashaydilar.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hazratlari o`rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini barchamiz uchun namuna tariqasida keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiyning hayoti ham, ijodi ham Abdurahmon Jomiyga ixlosmand shogird ekanligini namoyon etib turadi. “Xamsa”chilikda uning an`anasini davom ettirdi.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns ” asarini yanada boyitib, “Nasoyim ul-muhabbat ” nomli yangi asarini yozdi. Dostonlari va boshqa ko`plab asarlarida ustozni nomini tilga olib, unga bo`lgan izzat hurmatini izhor etadi. “Tuhfat ul-afkor” qasidasi Abdurahmon Jomiyga bag`ishlangan edi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning Samarqandda istiqomat qilgan Xoja Ahror Valiyga bo`lgan ixlosi g`oyatda ibratlidir. Xoja Ahror Valiyning ustoz-shogirdlik munosabatlari, o`sha davr siyosat maydonida ham, madaniy-ma`rifiy sohalarda ham katta ijobiy muhit yaratilishiga, tinchlik-barqarorlik, fuqaro huquqlari daxlsizligiga xizmat qilgani tarixdan bizga ma`lum. Ustozga bo`lgan ehtirom va sadoqatini hayotda va ijodda ado eta olgan Alisher Navoiy ustozlik faoliyati ham asrlar davomida ibrat namunasi bo`lib kelmoqda. Alisher Navoiyning shogirdi Xondamir qalamiga mansub “Makorim ul- axloq” asari shogirdning ustozga minnatdorchilik ramzi sifatida yozilgan. Navoiy hazratlarining yana bir shogirdi Kamoliddin Behzod bo`lib, bo`lajak rassomning iste`dod qirralarini ravnaq topishida, buyuk rassom bo`lishida ustozining hissalarini beqiyosdir.

Tarixda ustoz-shogird an`ansining rivoj topganiga ko`plab misollarni keltirishimiz mumkin. Qozizoda Rumiy va Mirzo Ulug`ek o`rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabati so`zimizning yana bir bor isbotidir. Ulug`bek o`z “Zij”ida Qozizodaga minnatdorchiligini bildirib, “ustozim” deb tilga oladi. Ulug`bekdek buyuk olimni

tarbiyalagan Qozizoda Rumiylar qoldirib ketgan adabiy-ilmiiy meros bugungi avlodning oltin mulki hisolanad.

Qozizoda Rumiylar, Al-Koshiyning va Mirzo Ulug'ekning shogirdi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi matematika va astraronomiya rivojida ulkan hissa qo'shgan. Ustozi Ulug'bekka sodiiq olim va shogird sifatida uning bebaho asari Zidjiy Ko'ragoniy"ni saqlab qolgan va ko'p nusxalarda ko'paytirgan, turk tiliga tarjima qilgan. Ali Qushchi Al-Koshiyning Samolar zinapoyasi" va Ulug'bekning Zidjiy Ko'ragoniy"ga sharhlar yozdi. Ustoz-shogirdlik ananasining ijobiiy natijasi samarasini Ulug'bekning "Zidjiy Ko'ragoniy" asarining tugallanishi va bizgacha yetib kelishida uning shogirdi Ali Qushchining qilgan ishini misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin.

Abu Nasr Mansur ibn Iroq Xorazimshoh Ma'mun akademiiyasi asoschilaridan biri bo'lim, Abu Rayhon Beruniyga ham murabbiylik, ham ustozlik qilgan. Ibn Iroq yosh daho shogirdiga kerakli barcha bilimlarni berib, o'zining bir nechta risolasini hali yosh Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlaydi.

O'z davrining muhaddis olimlari ham ustoz-shogird an'anasiga katta e'tibor qaratganlar. Mavlono Jalol id-Din Mahammad Rumiylar yoki Movlono nomlari bilan taniqli asosan fors tilida sharq she'riyati asarlarini yaratgan atoqli fors-tojik shoir-so'fisi. U kishi Makkaga safar chog'ida, Nishopurda u shayh Farididdun Muhammad Attor bilan suhbat qurish sharafiga muyassar bo'ladi. Qizuquvchan Farididdun Muhammad Attor unga bog'lanib qoladi va unga o'zining "Asrornoma kitobini bag'ishlaydi. Jaloliddin Rumiylar uni doim yonida olib yuradi. Rumiylar she'riyat, falsafa va dinshunoslik bobida bu qadar cho'qqilarga erishishiga o'sha davrlarning ma'rifatparvarlari shayh Shams Tabrizziy va Farididdun Attorlarning hissasi beqiyosdir. Shams Tabrizziydan u falsafa, ususan, so'fichilik bilan tanishadi.

XX asr shoirlari "oq she'r" deb nomlanuvchi adabiiy uslubdan foydalana boshlashdi. Ammo bu uslubni XIII asrda Jaloliddin Rumiylar ochib o'z ijodida foydalangan edi. Rumiylarining "Bilim mohiyati" asari aynan shu uslubda yozilgan bo'lib, kitobda so'zlar bulbul og'zidan chiqqani kabi erkin uzuladi. Guvohi bo'lganingizdek ustozlarimiz yozib qoldirgan asarlar ham bizlar uchun ustozlik qilmoqda.

Abu Iso Muhammad at-Termiziiy ilm-fanning turli sohalaridan – ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o'zi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan o'z davrining yirik olimlari – mashhur muhaddislardan ta'lim oladi.

Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy imom Muslim imom Abu Davud Qutaya in Sa'iyd Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn G'aylon va boshqa muhaddislarni ko'rsatish mumkin. O'z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziiy ko'pdan ko'p shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud, Anbar, Hamad ibn Shokir, Abd ibn Muhammad an-Nasafiyun, al-Haysam ibn Kulay ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiiy va Abul

Abbos Muhammadlarni sanab o`tish mumkin.

Ustoz-shogirdlik tushunchasi yuksak milliy qadriyatlarimizdan hisoblanib, asrlar davomida shakllanib kelgan. Ustoz ulamolar yoshlarga astoydil saboq berib, o`z burchlarini sharaf bilan ado etishadi. Biz bu muhtaram ustozlarimiz oldida hamisha o`zimizni burchli deb bilamiz. Mustaqillik davrida ko`plab milliy qadriyatlarimiz xalqimizga, hayotimizga qaytdi. Shular qatorida biz so`z yuritgan bobomeros qadriyat – ustoz-shogirdlik an`analarini yangi sharoitda yangicha mazmunda hayotga tatbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, allomalarimizning ustoz-shogirlik an`analarini davom ettirishimiz, ularga munosib shogirdlar bo`lishimiz lozim. Chunki biz ajdodlarimizning uzoq yillik ilm-ma`rifatlari va yuksak tajribalari asosida shakllangan boy merosga egamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-T.:Sharq, 1998
2. O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasining 2009-yil 11-soni
3. Maqsud Shayxzoda .Mirzo Ulug`bek.Drama (Asarlar.3-jild)
4. Maqsud Shayxzoda “Ustodning san`atxonasida” (3 qismli maqola, 1965-1966.)
5. Pedagogik mahorat” nazariy, ilmiy, metodik jurnal 3-4 son 6. Ziyonet.uz 100